



Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-avgust


RAQAMLAR:

- Xizmatlar sohasida 15,4 mingta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda.
- 2018 yil yanvar-avgust oylarida bozor xizmatlari hajmi 6166,1 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 1650,1 ming so'mni tashkil etdi.

Yangi korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish, shuningdek, faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar tomonidan innovatsion texnologiyalardan foydalanish va ko'rsatilayotgan xizmatlar ro'yxatini kengaytirish kelgusida ish o'rinlarini ko'paytirish va aholi farovonligini oshirishga yordam beradi.

Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 65,8 % ni tashkil etadi.

2018 yil 1 sentyabr holatiga korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), %




2018 yil yanvar-avgust oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 6166,1 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,7% ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi

	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	6166,1	107,7
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	406,5	118,4
Moliyaviy xizmatlar	597,3	133,2
Transport xizmatlari	1719,1	105,6
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1579,6	102,2
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	159,1	102,8
Savdo xizmatlari	1944,1	103,4
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	176,1	103,2
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	193,4	103,2
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	84,3	112,4
Ijara xizmatlari	228,8	107,4
Kompyuterlar va ma'ishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	181,6	102,8
Shaxsiy xizmatlar	264,3	102,0
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	54,0	142,2
Boshqa xizmatlar	157,5	103,4

2018 yil yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (42,2 %), moliyaviy xizmatlar (33,2 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (18,4 %), sog'liqni saqlash xizmatlari (12,4 %) kabi xizmat turlarida yuqori o'sish qayd etildi.


2018 yil yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari shaxsiy xizmatlar (102,0 %), kompyuterlar va ma'ishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (102,8 %), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (103,2 %) kabi xizmat turlarida qayd etildi.


Jami moliyaviy xizmatlar hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi (91,0 %) etakchilik qilmoqda.

2018 yil yanvar-avgust oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning asosiy qismini pul-kredit sohasida vositachilik xizmatlari (98,3 %) tashkil etadi.


2018 yil yanvar-avgust oylarida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida yuqori texnologik xizmatlarni yanada rivojlantirish, ko'rsatilayotgan xizmatlarning yangi turlarini kengaytirish, shuningdek, ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifatini yaxshilash aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulush (98,3%) telekommunikatsiya xizmatlariga (kabel va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) to'g'ri keladi.

2018 yil yanvar-avgust oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tarkibi, %



2018 yil yanvar-avgust oylarida jami aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining 0,9 % nashriyot xizmatlariga to'g'ri keldi.

Kompyuterda dasturlashtirish xizmatlarining ulushi joriy davrda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari umumiy hajmining 0,5 % ni tashkil etdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 83,5 % ulush bilan etakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 16,5 % ga to'g'ri keladi.

2018 yil yanvar-avgust oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, %



2018 yil yanvar-avgust oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1650,1 ming so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 105,7 % ni tashkil etdi.



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi



1650,1 ming so'm o'tgan yilning shu davriga nisbatan 105,7 %.



Viloyat statistika boshqarmasi
Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
Mas'ul: A.Abdullayev
(71) 230-85-35